

**“JINOYAT HUQUQIDA O‘ZGALAR MULKINI TALON-TOROJ QILISH
BILAN BOG‘LIQ JINOYATLAR SHAKLLARINING BAHOLANUVCHI
MEZONLARI YURIDIK TAHLILI: TALON-TAROJ QILISH
JINOYATLARINING OBYEKTIV TOMON BELGILARI**

**LEGAL ANALYSIS OF EVALUATIVE CRITERIA OF FORMS OF CRIMES
RELATED TO MISAPPROPRIATION OF OTHERS' PROPERTY IN
CRIMINAL LAW: OBJECTIVE ELEMENTS OF MISAPPROPRIATION
CRIMES**

**ЮРИДИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОЦЕНОЧНЫХ КРИТЕРИЕВ ФОРМ
ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ХИЩЕНИЕМ ЧУЖОГО
ИМУЩЕСТВА В УГОЛОВНОМ ПРАВЕ: ОБЪЕКТИВНЫЕ ПРИЗНАКИ
ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ХИЩЕНИЕМ**

Yuridik fanlar

Sharipov Normurod Raim o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri,

Email: normurodsharipov20@gmail.com

Tel: +998945156862

ORCID:

Шарипов Нормурод Раим угли

*Магистр Ташкентского государственного
юридического университета.*

Sharipov Normurod Raim ugli

Master's student at Tashkent State University of Law.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 164–169-moddalarida nazarda tutilgan o‘zgalar mol-mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlar tahlil qilinadi. Talon-toroj tushunchasining nazariy asoslari, uning turlari – bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o‘zlashtirish yoki rastrata qilish, firibgarlik va o‘g‘irlik – har birining obyektiv tomon belgilari yoritib berilgan. Shuningdek, mulk egasi yoki boshqa shaxsga nisbatan qo‘llanilgan zo‘rlilik, aldash va tahdid elementlari jinoyat tarkibini shakllantirishdagi o‘rni izohlangan. Jinoyat kodeksi normalari va yuridik adabiyotlar asosida jinoyat tarkibining aniqlanishida amaliy va nazariy jihatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. jinoyat huquqi, talon-toroj, bosqinchilik, tovlamachilik, firibgarlik, o‘g‘irlik, obyektiv tomon, mulk, zo‘rlilik, tahdid, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.

Аннотация. В данной статье проведён юридический анализ преступлений, связанных с хищением чужого имущества, предусмотренных статьями 164–169 Уголовного кодекса Республики Узбекистан. Рассмотрены теоретические основы понятия «хищение», его формы – разбой, вымогательство, грабёж, присвоение или растрата, мошенничество и кража, а также объективные признаки данных преступлений. Особое внимание уделено характеристике насилия, обмана и угроз, применяемых в процессе совершения преступления. Анализ основан на положениях УК РУз и юридической литературе, с учётом практики квалификации.

Ключевые слова. уголовное право, хищение, разбой, вымогательство, мошенничество, кража, объективная сторона, имущество, насилие, угроза, УК РУз.

Annotation. This article provides a legal analysis of crimes related to the misappropriation of others' property as regulated under Articles 164–169 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. It examines the theoretical foundations of the concept of "misappropriation," its various forms – robbery, extortion, theft, embezzlement or misappropriation, fraud, and larceny – and the objective elements of these crimes. The article also discusses the role of violence, deception, and threats in the commission of these offenses. The analysis is based on the provisions of the Criminal Code of Uzbekistan and legal doctrine, with attention to the practical and theoretical aspects of crime classification.

Keywords. criminal law, misappropriation, robbery, extortion, fraud, theft, objective elements, property, violence, threat, Criminal Code of Uzbekistan

Kirish. Bugungi kunda mulkning hamda mulk huquqining daxlsizligi eng yuqori turuvchi ahamiyatga ega qadriyatlardan biri sifatida qaralmoqda. Biroq, o'zgalar mulkini qonunga xilof ravishda egallash holatlarining turli shakllari va yangi usullari ortib borayotganligi sababli mazkur mavzuni doimiy tahlil qilib borish hamda zamonaviy yechimlar berish zarurati yuzaga kelmoqda.

Adabiyotlar sharhi. O'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlar bosqinchilik (164-moddasi), tovlamachilik (165-modda), talonchilik (166-modda), o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-taroj qilish (167-modda), firibgarlik (168-modda), o'g'rilik (169-modda) jinoyatlari hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalari bilan belgilanadi.

Bu moddalarda nazarda tutilgan talon-taroj shakllarining barcha zaruriy belgilarini to'liq qamrab oladigan "talon-taroj" tushunchasiga aniq bir ta'rif berish mushkuldir. Demak, talon-taroj qilish o'zganing mulkini yoki mulkiy huquqlarini qasddan, qonunga xilof ravishda g'arazli niyatlarda, qaytarib bermaslik maqsadida mulk egasiga yoki mulk uchun javobgar shaxsga yoxud mulkning g'ayriqonuniy

egallanishiga to'sqinlik qilgan shaxsga zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib yoki zo'rlik ishlatmasdan, yashirin ravishda aybdorning o'z ixtiyoriga yoki boshqaning ixtiyoriga olinishidir [1; 14-b].

Talon-tarojga berilgan ta'riflarning ko'pchiligida tarixiy rivojlanishining keyingi bosqichida mulkni qonunga xilof tarzda olib qo'yish, mulkdor yoki boshqa mulk egasidan, ularga moddiy zarar yetkazish kabi belgilar ham ko'rsatib o'tilgan [2; 10-11-b].

Jumladan, professor M.X.Rustamboyevning fikricha, talon-taroj qilish o'zgalar mulkini o'z foydasi, boshqa shaxslar foydasi uchun qonunga xilof tarzda va bepul o'ziga qaratib olishdir [3; 214-b]. R. Qobulovning nazarda tutishicha, talon-taroj qasddan, g'arazli, huquqqa xilof va o'rnini qoplamasdan, o'zgalar mulkini egallab, mulkdor yoki boshqa mulk egasi ixtiyoridan, ularga moddiy zarar yetkazib olib qo'yishdir [2; 53-b].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada adabiyotlar tahlili, natijalar qiyoslash va taqqoslash, ilmiy va amaliy kuzatish usuli, tovlamachilik jinoyatini axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etish amaliyoti o'rganilgan.

Tahlil va natijalar. Jinoyat kodeksi Maxsus qismi tegishli moddalarida ko'rsatilgan hamma jinoyatlar qandaydir darajada davlat yoki jamoat manfaatlariga yoki fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan shaxsiy huquq va erkinliklariga zarar yetkazadi. Shu sababdan, mulkni talon-taroj qilishning ba'zilar sodir etilishi natijasida moddiy zarar, balki shaxslarning sog'lig'iga, ruhiyatiga, jismoniy daxlsizligiga ham ma'lum darajada zarar yetkazilishi jinoyatlarning zaruriy belgisi hisoblanadi. Demak, R.Qobilov talon-tarojga bergan ta'rifda talon-taroj tushunchasi to'liq qamrab olinmagan.

Jinoyat huquqi nazariyasida "talon-taroj qilish" atamasi o'zganing mol-mulkini o'g'rilik, talonchilik yoki bosqinchilik yo'li bilan qo'lga kiritishni qamrab oladi [2; 53-b].

Bosqinchilikda o'zganing mol-mulkini talon-taroj qilish maqsadida shu mulk egasiga yoki uni qo'riqlashga uringan shaxsning hayoti yoki sog'lig'iga xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish yoki shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib hujum qilish **obyektiv tomon** deb ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasi JK 164-moddasiga ko'ra, o'zganing mol-mulkini talon-taroj qilish maqsadida hujum qilib, hayot yoki sog'lik uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etilgan paytdan e'tiboran jinoyat tamom bo'lgan deb e'tirof etiladi. Biroq, bosqinchilikda mulkni talon-taroj qilish bosqinchilik tarkibi doirasidan chetga chiqmaydi va JK boshqa moddasi bilan qo'shimcha tavsiflashni talab qilmaydi.

Shunday qilib, «talon-taroj qilish» o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilikda mulkni qo'lga kiritishning umumiy usuli sifatida tavsiflanadi. Ayni vaqtda talon-taroj qilish o'g'rilik tushunchasidan kengroq bo'lib, o'g'rilik uning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Talon-toraj qilinayotgan mol-mulkka aybdorning munosabati uning ushbu mol-mulk doimo o'zganiki ekanligini bilishida ifodalanadi. Jinoyat huquqi nazariyasi va sud-tergov amaliyotida aybdorga ishonib topshirilmagan, uning tasarrufida, qonuniy ixtiyorida yoki xo'jalik boshqaruvida bo'lmagan mol-mulk shubhasiz o'zganing mulki deb e'tirof etiladi. Aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning qonuniy ixtiyorida bo'lgan mol-mulk talon-toraj qilishning bir shakli sifatida o'zlashtirish yoki rastrata qilishning predmeti [7; 28-29-b], aybdorning xo'jalik boshqaruvida bo'lgan mol-mulk esa o'z mansab mavqeini suiiste'mol qilib talon-toraj qilishning predmeti [8; 33-b] hisoblanadi.

Shuni ham sanab o'tishimiz joizki, bosqinchilikda ishlatiladigan zo'rlik ham jismoniy, ham ruhiy bo'lishi mumkinligi keltiriladi. Odatda, bosqinchilikda zo'rlik ishlatish bilan bir vaqtda yoki keyin ham ruhiy zo'rlik ishlatish holatlari uchraydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qaroriga ko'ra **hayot uchun xavfli bo'lgan zo'rlik** ishlatilishi jabrlanuvchining hayoti uchun aniq bo'lgan xavfni vujudga keltiruvchi holat tushuniladi.

Sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish deganda, jabrlanuvchiga sog'ligining buzilishiga sabab bo'lgan tan jarohati etkazish yoki shunday tan jarohatini etkazish xavfini tug'diruvchi harakatlar (chakkaga, quyosh chigaliga urish va hokazo) tushuniladi [9; 1-b].

Shuni ham aniqlashimiz lozimki, JK 164-moddasi 1-qismi jabrlanuvchi sog'ligiga o'rtacha og'ir shikast etkazish yoki engil shikast etkazish oqibatlarini ham qamrab oladi va boshqa moddalar bilan qo'shimcha moddalar (JK 105-109-moddalari) bilan kvalifikatsiya qilish talab qilinmasligi yuridik adabiyotlarda nazarda tutiladi.

Bosqinchilikda ishlatiladigan zo'rlik jabrlanuvchidan tortib olingan mol-mulkni egallash yoki o'zida saqlab qolish jinoyat usuli hisoblanadi. O'zganing mol-mulkini egallash yoki saqlab qolish maqsadida zo'rlik ishlatish bunday turdagi jinoyatning *zaruriy belgisi* hisoblanadi.

Tovlamachilik jinoyatining obyektiv tomondan jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkka shikast etkazish yoki uni nobud qilish yohud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitib o'zgadan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yohud mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yohud jabrlanuvchini o'z mulki yoki mulkka bo'lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yishda ifodlanadi.

JKning 165-moddasi 1-qismida ko'rib o'tilganidek, tovlamachilik murakkab tarkibli jinoyat bo'lib, bir tomondan aybdor mulkdordan bila turib, g'ayriqonuniy ravishda o'ziga yoki u ko'rsatgan shaxslarga muayyan mulkni, mulkka bo'lgan huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud ular foydasiga muayyan

mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etishni talab qilsa, boshqa tomondan tahdidga asoslangan zo'rlik ishlatiladi [3; 409-b].

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorida quyidagilar alohida ta'kidlab o'tilgan: "qarzdordan qarzini talab qilish Jinoyat kodeksining 165-moddasi bilan tavsiflanishi mumkin emas, lekin ayrim hollarda o'zboshimchilik (JK 229-moddasi) tariqasida baholanishi lozim. Qarzdor va qarz beruvchi o'rtasida foizlar to'lash bo'yicha oldindan kelishuv bo'lmagan bo'lsa berilgan qarz uchun foiz talab qilish tovlamachilik jinoyati tarkibini tashkil etadi" [6; 2-b].

Talenchilik jinoyati **obyektiv tomondan** o'zganing mulkini oshkora talon-toraj qilishda ifodalanadi. Talenchilikning obyektiv tomoni ijtimoiy xavfli qilmishni, yuzaga kelgan jinoiy oqibatni va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanishni o'z ichiga qamrab oladi. Mulkn ochiqdan-ochiq talon-toraj qilish usuli sharhlanayotgan jinoyat tarkibining zaruriy elementi bo'lib, ikkita: obyektiv va subyektiv xususiyatlarga ega.

Ochiqdan-ochiq talon-toraj qilishning **obyektiv xususiyati** aybdor tomonidan o'zganing mulkini mol-mulk egasi yoki mol-mulk ixtiyorida yoxud muhofazasida bo'lgan shaxslarning, o'zganing mulki talon-toraj qilinayotganligi anglab turgan begona kishilarning ko'zi olidida talon-toraj qilishda namoyon bo'ladi.

Ochiqdan ochiq talon-toraj qilishning **subyektiv xususiyati** shundaki, talonchi o'zganing mulkini ochiq-oydin talon-toraj qilayotgan vaqtida o'zining xatti-harakatlari mulk egasi tomonidan yohud mol-mulk tasarrufida bo'lgan yoki begona shaxslar tomonidan kuzatib turilganligini anglaydi [3; 419-b].

Jinoyat huquqi adabiyotlarida nazarda tutilganidek, **o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish** jinoyatining **obyektiv tomondan** aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning egaligida bo'lgan o'zganing mulkini moddada nazarda tutilgan qilmishni sodir etishida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi oliy sudi Plenumi tomonidan shu munosabat bilan belgilab o'tilganidek, mansab vazifalari yohud shartnomaviy munosabatlarga ko'ra, o'zganing mulkini tasarruf qilish, boshqarish, etkazib berish yoki saqlash bo'yicha qonuniy vakolatlarni amalga oshiruvchi shaxsning mazkur mulkn qonunga xilof ravishda tekinga o'zining mulkiga yoki boshqa shaxsning mulkiga aylantirishi aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish deb tavsiflanishi lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan qonuniy vakolatlarga ega bo'lmagan, ammo topshirilgan ishni yohud xizmat vazifalarini bajarishi tufayli mulk saqlanadigan joyga kirish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan o'zgalar mulkining talon-toraj qilinishi o'g'irlik deb tavsiflanishi kerak [6; 1-b].

Shuni alohida nazarda tutishimizki, talon-torajning rastrata shaklida talon-toraj qilingan mulk aybdorda bo'lmaydi, u sotilgan, hadya qilingan, iste'mol qilingan bo'lishi mumkin, ya'ni mulk egasiga talon-toraj qilingan mulkining faqatgina pul

qiymatida qaytarish mumkin. O'zlashtirishda esa talon-toraj qilingan mulk qonuniy egasiga qaytarilish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Obyektiv tomondan firibgarlik aldash yoki ishonchni suiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiy huquqini qo'lga kiritishdan iborat bo'ladi. Tashqi tarafdin mulkdor tomonidan mulkni "ixtiyoriy" ravishda berish yoki begonalashtirish va jinoyatchiga o'tkazish kuzatiladi. Aynan aldash yoki ishonchni suiste'mol qilish mulkdorda yoki mulkning boshqa qonuniy egasida mulkni yoxud mulkiy huquqlarni jinoyatchiga o'tkazish fikrini tug'diradi [5; 1-b].

Firibgarlikda aldash deganda, aybdor tomonidan, bila turib, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yolg'on ma'lumotlar xabar qilinishi yoki ish holati bo'yicha mulkdor, mulkning boshqa egasiga ma'lum qilinishi lozim bo'lgan haqiqiy faktlarni yashirish yoxud bunday shaxslarni yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir etilgan harakatlar tushuniladi.

Firibgarlikda yolg'on ma'lumotlarga jabrlanuvchini yanglishtirishga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday holatlar bo'yicha ma'lumotlar, jumladan, yuridik fakt va voqealar, mulkning sifati, narxi, aybdorning shaxsi, uning niyati, vakolati (masalan, aybdor shaxs o'zini mansabdor shaxs yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi yoxud qonuniy asoslarda faoliyat yurituvchi tadbirkor sifatida ko'rsatishi va h.k.) taalluqli bo'lishi mumkin.

Firibgarlikda jabrlanuvchini yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir etiladigan harakatlar jumlasiga, masalan, bitim yoki to'lov predmetini soxtalashtirish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni o'ynash chog'ida aldov usullarini qo'llash va h.k. kiradi [5; 1-b].

Professor Rustambayevning fikriga ko'ra **o'g'irlik** jinoyati *obyektiv tomondan* o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-toraj qilishda, ya'ni g'ayriqonuniy bepul undirishda ifodalanadi.

Talon-toraj qilishning yashirin usuli deganda, mulk egasi yoki mulkm ishonib topshirilgan yoki ixtiyorida turgan shaxsga sezdirmasdan, ular yo'q vaqtda yohud mulkdor yoki boshqa shaxslar mulkning talon-toraj qilinayotganini tushunmagan vaqtda sodir etilishi tushuniladi.

Barcha holatlarda talon-toraj qilishni yashirin deb hisoblash uchun, o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita: obyektiv va subyektiv mezonni tahlil qilish va baholash lozim. Ularning birinchisi hal qiluvchi hal qiluvchi tusga emas, balki ko'proq qo'shimcha ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun aybdor o'zgalar mol-mulkini g'ayriqonuniy undirishga qaratilgan o'z harakatlari atrofdagilar uchun ko'rinmasligiga ishongan hollarda ham o'g'irlik tarkibi mavjud bo'ladi.

O'zgalar mol-mulki yashirin talon-toraj qilinishidan tashqari, talon-toraj zo'rlik ishlatmay sodir etilishi o'g'irlikka xos bo'lgan yanan bir belgi hisoblanadi. Bu belgilar

o'g'irlik jinoyatini bosqinchilik va talonchilik jinoyatlaridan farqlash imkoniyatini beradi [3; 453-454-b].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mazkur turdagi jinoyatlar doimi rivojlanib boradi hamda yangicha ko'rinishda amalga oshirilishda davom etadi. Shu bilan birga, ushbu turdagi jinoyatlarni tahlil qilish hamda ularni tasniflashning yangi nazariy va amaliy metodlarini ishlab chiqish ham zaruriy ehtiyojga aylanib boradi.

Tadqiqot davomida mazkur jinoyatlarni qamrab olgan Jinoyat kodeksining tegishli moddalarini takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 166-moddasining birinchi va ikkinchi qism sanksiyalarida nazarda tutilgan eng ko'p qismi bir xil besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilib belgilangan. Ularning farqi ushbu moddaning birinchi qismi sanksiyasida jazo alternativ tarzda belgilanib, ozodlikdan mahrum qilishning eng kam qismi aniq belgilab qo'yilmagan. Ikkinchi qismining sanksiyasida esa, ozodlikdan mahrum qilishning eng kam qismi belgilanib qo'yilgan (uch yildan besh yilgacha). Biroq, talonchilikning oddiy turi bilan murakkab turlarining ijtimoiy xavflilik darajasi bir xil emasligi, ikkinchi qismida "hayot va sog'lik uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatib yoxud zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib" tarzda sodir etilganligi sababli uning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoridir. Bundan tashqari faqat jazoni kuchaytirish bilan bu turdagi jinoyatlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borish mumkinligi har doim ham o'zini oqlayvermaydi va JK jazo tayinlashdan maqsad faqat uni jazolash emas. Shuni hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 166-moddasi birinchi qismi sanksiyasida belgilangan ozodlikdan mahrum qilishning muddatini uch yilgacha belgilash to'g'ri bo'ladi degan fikrdamiz.

ikkinchidan, JK 661-moddasi yarashgaligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish nazarda tutilgan bo'lib, unga asosan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar kiritilgan, mening taklifim Jinoyat kodeksi 165-moddasi birinchi qismi va 166-moddasi birinchi qismi uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar tarkibiga kiradi shu sababli yuqorida sanab o'tilgan moddalar birinchi qismlarini ham 661-moddasiga qo'shishni va yuqoridagi jinoiy qilmishlarni sodir etgan shaxslarga ham yarashgaligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish imkoniyatini berishni taklif qilaman.

uchinchidan, Jinoyat Kodeksi 165-moddasida nazarda tutilgan tovlamachilik jinoyatining ikkinchi qism "b" va uchinchi qism "a" bandida ketirib o'tilgan jinoyat sodir etish natijasida ko'p miqdorda va juda ko'p miqdorda zarar yetkazilganda, agarda jinoyatni sodir etgan shaxs o'z xohishi bilan yetkazilgan zararni qoplasa, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turini tayinlashni rag'batlantiruvchi norma sifatida kiritishni, bundan ko'zlangan maqsad esa jabrlanuvchilarga o'z vaqtida yetkazilgan zararni qoplashidir. Masalan, 168-modda ham xuddi shunday

rag'batlantiruvchi norma sifatida sanab o'tishimiz mumkin. Qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak, jinoyat sodir etgan shaxs jinoyat oqibatida zarar yetkazgan obyekt "mulk"dir va shu sababdan ushbu huquq normasini JK normalariga qo'shishimiz uchun asos bo'ladi deb o'ylaymiz va yana shuni ham aytish mumkinki, hozirda jinoyatlar natijasida yetkazilgan zararni o'rnini qoplash masalasi juda dolzarb bo'lib bormoqda.

to'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 169-moddasiga ham "kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etilgan bo'lsa" degan jinoyat sodir qilish usulini kiritish lozim deb o'ylaymiz. Bunga sabab hozirgi kunda naqd pul yechish bankomatlariga turli kompyuter texnikasi vositalarini joylashtirib, yashirin ravishda fuqarolarning plastik kodlarini va ular haqida ma'lumotlarni o'g'irlab shundan so'ng uning ichidagi pul mablag'larini yechib olishyabdi. Bizga ma'lumki, kompyuter texnikasi vositalari ikkiga ajratish mumkin. Bular apparat vositalari va dastur vositalari kiradi. Dastur vositalari – bu muayyan natijaga erishish maqsadida, kompyuter va apparat vositalarini boshqarishga mo'ljallangan ma'lumotlar hamda buyruqlar yig'indisini ifoda etuvchi obyektiv hamda buyruqlar yig'indisini ifoda etuvchi obyektiv shakl, shuningdek, ularni qayta tasvirlarni qayd etgan moddiy tashuvchi materiallardir. Hozirgi raqamlashgan dunyoda bu kabi jinoyatlar ko'payib borish statistikasini inobatga oladigan bo'lsak. Shu sababli, yuqorida keltirilgan jinoyat sodir etish usulini 169-moddaga kiritishni taklif qilamiz.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Bakunov P. Talon-toroj jinoyatlari tushunchasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent: TDYU, 2010.
2. Кобулов Р. Мулкни талон-торок килиш нима? // Хаёт ва конун. -Тошкент, 1996. -№ 10.
3. М.Х.Рустамбаев "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar" 2021, 2-tom 436 bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – T.:2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 17-son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi "Iqtisodiy sohasida ijnoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida"gi 11-son qarori.
7. Гауман Л.Д Борьба с хищениями, совершаемыми путем присвоения, растраты и злоупотреблений служебным положением: Учебное пособие. - М., 1980. –С.
8. Курс советского уголовного права (часть Особенная). Т. 3. - Л.: ЛГУ, 1973.- 430-6. Борьба с хищениями, совершаемыми путем присвоения, растраты и злоупотребления служебным положением. Учебное пособия - М., 1980-С33.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999-yil 30-apreldagi "O'zgalar mulkini o'g'irlilik, talonchilik va bosqinchilik qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 6-son qarori.